RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	



DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYI HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeovich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinova	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIY-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLUKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELİ	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLUKAT BRENÐ-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizozulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	1804
Холикова Сабохат Абдукарим кизи	
IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	1809
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	1812
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1818
Hamroeva Zuhra Amiral qizi	
ОСНОВНЫЕ ДРАЙВЕРЫ ИННОВАЦИОННОГО РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	1824
Самадкулов Мухаммаджон	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHILAR FAOLIYATIGA JORIY ETILISH YO'NALISHLARI.....	1828
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI: O'ZBEKISTON AGRAR SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI VA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA INTEGRATSIYA MASALALARI.....	1833
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



EKOMARKETING: BOZOR TALABINING YANGI YO'NALISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.....	1838
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	1844
Jabborov Bahridin Rashidovich	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	1849
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1854
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
ВКЛАД ОБЪЕКТОВ НАСЛЕДЯ В ТУРИСТИЧЕСКИЕ ПОТОКИ И ЭКОНОМИКУ ГОРОДОВ.....	1859
Азизова Назира Тохтаевна	
ОПТИМИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1863
Минутдинова Лилия Тагировна	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ И СПЕЦИФИКА БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЭКОНОМИКУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1868
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
ЕКОЛОГИК MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	1872
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1879
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Хумоюн Бобир ўғли	
EKSPORT SALONIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	1887
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1894
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING MONITORING MECHANISMS FOR ASSESSING THE LEVEL OF FINANCIAL INCLUSION BASED ON AN INFORMATION SYSTEM.....	1899
Adashaliyev Bakhtiyorjon Valisher o'g'li	
ISLOM BANKLARI ORQALI IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MODELI	1905
Voxidov Oybek Roziqovich	
УПУЩЕННЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ПОТЕНЦИАЛ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	1909
Алиева Эльнара Аметовна	
QISHLOQ JOYLARI AHOLISI BANDLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YO'LLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1916
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH	1921
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
WAYS TO IMPROVE THE PERFORMANCE OF INVESTMENT FUNDS	1924
Khoshimov Jakhongir Ravshanbek ugli	
RAQAMLI HIKOYALASH ORQALI YASHIL QURILISH MATERIALLARI UCHUN EKO-MARKETING QAROR TUZILMALARI.....	1929
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA FAOLIYAT YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MARKETING, LOGISTIKA VA SOTISH TIZIMINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1939
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
KORXONALAR TOMONIDAN INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH HAMDA ULARNING SAMARALI FOYDALANILISHINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	1954
Isakova Naima Ikromjonovna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING XALQARO ASOSLARI.....	1960
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI.....	1966
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
ELEKTR ENERGIYANI SOTUVCHI KORXONALARDA ENERGIYA YO'QOTISHLARINI HISOBGA OLISH	1972
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
O'ZBEKISTON AGRAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA PAST BALANDLIK IQTISODIYOTI.....	1977
Kadirov Shuxrat Munavvarovich	



KIRISH

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylandi. Xususan, uchuvchisiz aviatsiya tizimlari (UAT), masofadan zondlash vositalari va raqamli platformalarga asoslangan PBI qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlarida yangi operatsion imkoniyatlarni shakllantirmoqda.

Mazkur tadqiqotda biz global iqtisodiyotda yangi shakllanayotgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasining strategik rivojlanish dasturlarida alohida o'rin tutgan "Past balandlik iqtisodiyoti" (Low-altitude economy)¹ tushunchasidan foydalanishni lozim topdik. Ushbu atama shunchaki uchuvchisiz qurilmalardan foydalanishni emas, balki yer sathidan 1000 metrgacha bo'lgan havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy faoliyat, raqamli xizmatlar va infratuzilmaviy boshqaruv tizimlarini ifodalaydi.

Mazkur yondashuv aniq qishloq xo'jaligi konsepsiyasi doirasida yer maydonlarini monitoring qilish, agrotexnologik jarayonlarni optimallashtirish, resurs sarfini qisqartirish hamda ishlab chiqarish natijalarining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda UATning qishloq xo'jaligida qo'llanilishi mahsuldorlikni oshirish, kirish resurslaridan samarali foydalanish va qaror qabul qilish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi (Radoglou-Grammatikis va boshq., 2020; Kalamkar va boshq., 2020).

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida texnologiyalar yoki qisqa muddatli pilot loyihalarni tavsiflash bilan cheklanib, texnologiyani qabul qilish jarayonining vaqt bo'yicha dinamikasi, institutsional muhit ta'siri va xo'jalik xususiyatlari bilan bog'liq farqlarni yetarli darajada ochib bermagan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida ham PBI texnologiyalarini joriy etishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon bir xil sur'atda kechmayapti. Institutsional qo'llab-quvvatlash darajasi, infratuzilmaviy cheklovlar, raqamli tayyorgarlik hamda fermer xo'jaliklarining operatsion ko'lamli texnologiyani qabul qilish vaqti va samaradorlik natijalarining farqlanishiga olib kelmoqda. Ayni paytda, ushbu farqlarni empirik ma'lumotlar asosida tizimli baholashga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emas.

Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyani qabul qilish jarayoni faqat texnologiyaning o'ziga emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar ekotizimi, tartibga solish mexanizmlari va ishlab chiqaruvchilarning tashkiliy imkoniyatlariga ham bog'liq. Shu bois, qabul qilishning erta va kech bosqichlari o'rtasidagi farqlar ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy natijadorlikka turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlarida PBI texnologiyalarini qabul qilish jarayoni, qabul qilish vaqtidagi farqlar hamda ularning operatsion samaradorlik va iqtisodiy natijalarga ta'sirini empirik jihatdan aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- PBI texnologiyalarini qabul qilish dinamikasini baholash;
- erta va kech qabul qiluvchilar o'rtasidagi farqlarni aniqlash;
- operatsion samaradorlikning vositachilik rolini tahlil qilish;
- institutsional va infratuzilmaviy omillarning ta'sirini baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda PBIning qabul qilish jarayoni parametrik omonlik modellari orqali tahlil qilinib, samaradorlik mexanizmlari strukturali tenglamalar modeli asosida baholandi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv texnologiyani qabul qilish vaqti va samaradorlik natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni xo'jalik darajasida ochib berish imkonini beradi.

Olingan natijalar PBIning qishloq xo'jaligida joriy etish bo'yicha siyosat chora-tadbirlarini ishlab chiqish, shuningdek, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini farqlangan tarzda shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Maqola tuzilishi quyidagicha: keyingi bo'limda tadqiqot metodologiyasi bayon etiladi, navbatdagi bo'limlarda empirik natijalar va ularning muhokamasi keltiriladi, yakunda esa asosiy xulosalar taqdim etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda agrar sohada samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim xavflariga moslashish masalalari global ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar, xususan, uchuvchisiz uchish apparatlari va ular bilan bog'liq bo'lgan past balandlik iqtisodiyoti konsepsiyasi agrar ishlab chiqarishda yangi sifat bosqichini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bankining O'zbekiston qishloq xo'jaligi tizimining iqlim o'zgarishiga zaifligi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida suv tanqisligi, hosildorlikning hududlar bo'yicha keskin farqlanishi va an'anaviy boshqaruv usullarining samarasizligi asosiy tizimli muammolar sifatida qayd etiladi. Bu holat agrar sektorda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini kuchaytiradi.

1 Ma'lumot uchun: "Past balandlik iqtisodiyoti" atamasi ilk bor Xitoy Xalq Respublikasining strategik rivojlanish dasturlarida rasmiy iqtisodiy kategoriya sifatida tan olingan va 2024 yildan boshlab "yangi sifatli ishlab chiqarish kuchlari"ning drayveri sifatida belgilangan.



Past balandlik iqtisodiyotining nazariy asoslari va uning ishlab chiqaruvchi kuchlarning yangi sifatini shakllantirishdagi o'рни Liu X., Song D. va Xu Z. tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Mualliflar past balandlik iqtisodiyotini texnologik infratuzilma, raqamli boshqaruv va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimining integratsiyalashgan modeli sifatida talqin qiladi. Xinyan Liu tomonidan olib borilgan umumlashtiruvchi tadqiqotlarda esa past balandlik iqtisodiyoti agrar soha, logistika va ekologik monitoringni birlashtiruvchi ko'p tarmoqli rivojlanish platformasi sifatida baholanadi.

Xitoy tajribasiga bag'ishlangan empirik tadqiqotlar ushbu konsepsiyaning agrar samaradorlikka bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Yang J. tomonidan olib borilgan tadqiqotda past balandlik iqtisodiyotining talab, taklif va ekologik muvozanatga ta'siri asosida qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish aniqligi sezilarli darajada oshgani isbotlangan. Junwei Zh. va Jianju Du tadqiqotlarida esa an'anaviy dehqonchilikdan "aqlli qishloq xo'jaligi"ga o'tishda past balandlik texnologiyalari hududlar kesimida hosildorlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib berilgan. Wen J. va Wang Z. firmalar darajasidagi ma'lumotlar asosida olib borgan tahlillarida past balandlik iqtisodiyotiga investitsiyalar umumiy omillar samaradorligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Uchuvchisiz uchish apparatlarining aniq dehqonchilikdagi amaliy imkoniyatlari Radoglou-Grammatikis va hammualliflar tomonidan tizimli ravishda umumlashtirilgan bo'lib, ularda ekin monitoringi, kasalliklarni erta aniqlash, o'g'itlash va sug'orishni optimallashtirish kabi funksiyalar agrar samaradorlikning asosiy drayverlari sifatida ko'rsatiladi. Markaziy Osiyo sharoitiga oid tadqiqotlar, xususan, Kalamkar va Dileep tomonidan tayyorlangan dissertatsiya ishlarida dron texnologiyalarining mintaqaviy agroiklim sharoitlariga moslashuvchanligi va kichik xo'jaliklar uchun iqtisodiy jihatdan maqbulligi ta'kidlanadi. Qozog'iston tajribasini yoritgan Mukhamediyev tadqiqotlarida esa dronlarga asoslangan aniq dehqonchilik tizimlari hosildorlikni oshirish bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkonini berayotgani qayd etiladi.

O'zbekiston kontekstida ushbu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nisbatan yangi bo'lsa-da, muhim ilmiy-amaliy xulosalarni o'z ichiga oladi. Vafoev B. va Khomidov Kh. tomonidan dronlardan foydalanish amaliyoti tahlil qilinib, ularning paxtachilik va g'allachilikda monitoring samaradorligini oshirishi ko'rsatib berilgan. Teshaboyev O. va Rasulov S. esa uchuvchisiz uchish apparatlarini ommalashtirish jarayonida normativ-huquqiy va infratuzilmaviy to'siqlar mavjudligini qayd etadi. Ilyosov A. tomonidan aniq dehqonchilik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa past balandlik texnologiyalari O'zbekiston agrar sohasida resurs tejovchi ishlab chiqarish modelini shakllantirishda muhim rol o'ynashi asoslab beriladi. UNDP tomonidan Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilgan loyihalar esa agrar xizmatlar tizimini kuchaytirish orqali raqamli va texnologik yechimlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Xiuli Chen va Joohan Ryoo tomonidan taklif etilgan heliks modeli asosidagi yondashuv O'zbekiston sharoitida davlat, biznes va ilmiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali barqaror agrar innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini ochib beradi. Xalqaro tajribalar, jumladan, NEPAD tomonidan Afrikada dron texnologiyalarining joriy etilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham past balandlik iqtisodiyotining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar past balandlik iqtisodiyoti agrar samaradorlikni oshirish, iqlim xavflarini kamaytirish va resurslardan foydalanishni optimallashtirishda muhim vosita ekanini tasdiqlaydi. Biroq O'zbekiston sharoitida ushbu konsepsiyaning iqtisodiy samaradorligini tizimli baholash, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan empirik tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik qismi PBI texnologiyalarini O'zbekiston qishloq xo'jaligiga joriy etish dinamikasi va uning samaradorlikka ta'sirini tizimli o'rganishga qaratilgan. Tahlil jarayonida miqdoriy va sifat metodlarini birlashtirgan aralash tadqiqot strategiyasi (mixed methods research) qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish maqsadida ma'lumotlar 2023–2024-yillar davomida O'zbekistonning raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalari nisbatan faol joriy etilayotgan hududlari – Toshkent va Samarqand viloyatlarida to'plandi. Ushbu hududlar tanlanishiga ulardagi agrar ishlab chiqarish tizimining diversifikatsiyalashganligi (paxta-g'allachilik, bog'dorchilik va chorvachilikning mavjudligi) hamda institutsional qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining mavjudligi asos bo'ldi.

Tadqiqot tanlanmasi ko'p bosqichli tanlab olish/saralash (multi-stage sampling) asosida shakllantirildi:

1. dastlabki bosqichda PBI texnologiyalari bo'yicha tajriba loyihalarida ishtirok etayotgan va rasmiy ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy ro'yxati (sampling frame) tuzildi;
2. keyingi bosqichda xo'jalik rahbarlari va mutaxassislari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatilib, ularning raqamli xizmatlardan foydalanish tajribasi va ma'lumotlarni taqdim etishga tayyorligi tekshirildi.



Umumiy hisobda 312 ta subyekt o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ma'lumotlarning izchilligi va to'liqligini tekshirish natijasida, statistik tahlil uchun yaroqli deb topilgan 287 ta respondentning javoblari yakuniy tanlanmaga kiritildi. Shuningdek, jarayonning ichki mexanizmlarini chuqurroq o'rganish maqsadida 24 ta soha mutaxassislari va fermerlar bilan chuqurlashtirilgan intervyular (in-depth interviews) o'tkazildi.

Tadqiqotning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, ekonometrik tahlil ikkita o'zaro bog'liq bosqichda amalga oshirildi:

a) Texnologiyani qabul qilish vaqtini tahlil qilish (survival analysis). Ishlab chiqaruvchilarning PBI texnologiyalarini qabul qilish tezligi va bunga ta'sir etuvchi omillarni baholash uchun parametrik omonlik (yashovchanlik) modellari qo'llanildi. Bunda Kalbfleish va Prentis (2002) yondashuviga asoslanib, erta va kech qabul qiluvchilar o'rtasidagi farqlarni ifodalovchi xavf koeffitsiyenti (hazard ratio) hisoblandi. Modelning barqarorligini tekshirish maqsadida Exponential, Weibull va Gompertz taqsimotlaridan foydalanildi.

b) Samaradorlik mexanizmlarini baholash (Structural Equation Modeling – SEM). Texnologiyani qabul qilish vaqti, operatsion samaradorlik va yakuniy iqtisodiy natijadorlik o'rtasidagi murakkab zanjirli bog'liqlikni aniqlash uchun strukturali tenglamalar modellashtirishi (SEM) qo'llanildi. Ushbu metod kuzatilmaydigan (yashirin) konstruktarni (masalan, raqamli tayyorgarlik, institutsional yordam) ko'p sonli indikatorlar orqali baholash va ular o'rtasidagi to'g'ri va bilvosita ta'sirlarni bir vaqtda tahlil qilish imkonini beradi.


Modelda qo'llanilgan asosiy yashirin konstruktlar va ularning o'lchov birliklari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shakllantirildi:

- texnologik qobiliyat: xodimlarning malakasi, AT-infratuzilma mavjudligi;
- institutsional muhit: davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, konsultativ xizmatlar (ekstenshn) va huquqiy bazaning qulayligi;
- operatsion samaradorlik: resurs sarfining kamayishi (o'g'it, suv, yoqilg'i), monitoring vaqtining qisqarishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

PBI texnologiyalarini joriy etishning O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari samaradorligiga ta'sirini baholash bo'yicha o'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari quyidagi muhim xulosalarni taqdim etdi.

Tadqiqotning konseptual modeli doirasida texnologiyani qabul qilish, institutsional yordam va operatsion samaradorlik o'rtasidagi zanjirli bog'liqlik strukturali tenglamalar modellashtirishi (SEM) orqali baholandi. Modelning umumiy tuzilishi va o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat yo'nalishlari 1-rasmda o'z aksini topgan (1-rasm).



Kuzatishlar soni = 50
Endogen o'zgaruvchilar
Kuzatilgan: institutsional_yordam, operatsion_ko'lam, texnologik_qobiliyat
Ekzogen o'zgaruvchilar
Kuzatilgan: qabul_qilinish_vaqti, raqamli_tayyorgarlik, samaradorlik_oshishi, iqtisodiy_natijadorlik
Struktur tenglamalar modeli
Baholash usuli = maksimal ehtimollik (ml)
Log ehtimollik = -1133.4868
Model va to'yingan modelni solishtirish bo'yicha LR testi:
 $\chi^2(7) = 48.58$, Ehtimollik ($\text{Prob} > \chi^2$) = 0.0000

1-rasm. Strukturaviy tenglama modeli



Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional yordam va operatsion samaradorlikning oshishi o'rtasida kuchli va statistik jihatdan sezilarli bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, operatsion ko'lam (xo'jalik hajmi) texnologiyani qabul qilish vaqti va iqtisodiy natijadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy drayver sifatida namoyon bo'ldi. Baholash natijalarining standartlashtirilgan koeffitsiyentlari 1-jadvalda batafsil keltirilgan (1-javdal).


1-jadval. Strukturaviy tenglama modeli: standartlashtirilgan yo'l koeffitsiyentlari va dispersiyalar (OIM baholash)

	OIM Koeff.	Stand.Xat.	z	P>z	(95% Ishonch oralig'i)	
Strukturaviy bog'lanishlar						
institutsional yordam						
qabul qilinish vaqti	0.096	1.099	0.090	0.931	-2.059	2.250
samaradorlik oshishi	-1.809	0.339	-5.330	0.000	-2.474	-1.144
const	67.971	4.885	13.910	0.000	58.396	77.546
operatsion ko'lam						
qabul qilinish vaqti	5.911	2.778	2.130	0.033	0.467	11.355
raqamli tayyorgarlik	-0.571	0.474	-1.210	0.228	-1.499	0.357
samaradorlik oshishi	-2.140	1.152	-1.860	0.063	-4.397	0.118
iqtisodiy natijadorlik	1.765	0.682	2.590	0.010	0.429	3.102
const	102.164	34.745	2.940	0.003	34.064	170.263
texnologik qobiliyat						
raqamli tayyorgarlik	-0.256	0.084	-3.060	0.002	-0.420	-0.092
iqtisodiy natijadorlik	1.970	0.134	14.710	0.000	1.707	2.232
const	19.308	6.889	2.800	0.005	5.806	32.810
Dispersiyalar						
var(e.institutsional yordam)	103.141	20.628			69.693	152.642
var(e.operatsion ko'lam)	643.052	128.610			434.516	951.670
var(e.texnologik qobiliyat)	32.278	6.456			21.810	47.769

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy natijadorlikning operatsion ko'lam (1.765) va texnologik qobiliyat (1.970) bilan bog'liqligi yuqori ishonchlilik darajasiga ($p < 0.01$) ega.

Texnologiyani qabul qilish dinamikasi: Omonlik tahlili (survival analysis)

Ishlab chiqaruvchilarning PBI texnologiyalarini o'zlashtirish tezligini baholashda Kaplan-Meier modelidan foydalanildi. Erta va kech qabul qiluvchi guruhlar o'rtasidagi vaqt bo'yicha tafovutlar 2-rasmda yaqqol ko'rinadi (2-rasm).



2-rasm. Kaplan Meier omonlik modeli



Tahlil natijalariga ko'ra, erta qabul qiluvchilar guruhida texnologiyani o'zlashtirish muddati o'rtacha 18.4 oyni tashkil etgan bo'lsa, kech qabul qiluvchilarda bu jarayon 26.9 oygacha cho'zilgan. Modelning barqarorligini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan parametrik regressiya tahlillari (Exponential, Weibull va Gompertz) 2, 3 va 4-jadvallarda taqdim etilgan (2, 3, 4-jadval).

2-jadval. Eksponensial PH regressiyasi

t	Koeff.	Std. Xat.	t-stat	p-qiymat	(95% Ishonch oraliq)		Belgilanish
raqamli tayyorgarlik ~x	0.712	0.400	-0.61	0.545	0.237	2.140	
operatsion ko'lam ha	1	0.004	0.13	0.900	0.994	1.007	
institutsional yordam ~x	0.793	0.323	-0.57	0.569	0.357	1.763	
infratuzilma cheklovlari	0.853	0.374	-0.36	0.717	0.361	2.015	
samaradorlik oshishi ~x	0.944	0.403	-0.14	0.892	0.409	2.179	
iqtisodiy natijadorlik ~x	0.637	0.240	-1.20	0.232	0.304	1.334	
Doimiy	0.055	0.038	-4.21	0.000	0.014	0.212	***

O'rtacha bog'liq o'zgaruvchi = 23.780

Standart og'ish = 9.156

Kuzatishlar soni = 150

Chi-kvadrat = 2.179

Prob > chi² = 0.903

Akaike axborot mezoni (AIC) = 266.743

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

3-jadval. Weibull PH regressiyasi

t	Koeff.	Std. Xat.	t-stat	p-qiymat	(95% Ishonch oraliq)		Belgilanish
raqamli tayyorgarlik ~x	0.645	0.361	-0.78	0.433	0.215	1.934	
operatsion ko'lam ha	1	0.004	0.03	0.975	0.993	1.007	
institutsional yordam ~x	0.928	0.381	-0.18	0.856	0.415	2.075	
infratuzilma cheklovlari	0.715	0.317	-0.76	0.450	0.300	1.705	
samaradorlik oshishi ~x	0.984	0.429	-0.04	0.970	0.418	2.313	
iqtisodiy natijadorlik ~x	0.512	0.197	-1.74	0.082	0.241	1.088	*
Doimiy	0	0	-7.31	0.000	0	0.003	***
ln_p (forma parametri)	0.944	0.103	9.19	0.000	0.743	1.145	***

O'rtacha bog'liq o'zgaruvchi = 23.780

Standart og'ish = 9.156

Kuzatishlar soni = 150

Chi-kvadrat = 4.054

Prob > chi² = 0.669

AIC = 220.360

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

4-jadval. Gompertz PH regressiyasi

t	Koeff.	Std. Xat.	t-stat	p-qiymat	(95% Ishonch oraliq)		Belgilanish
raqamli tayyorgarlik ~x	0.629	0.353	-0.83	0.409	0.210	1.888	
operatsion ko'lam ha	1	0.004	0.02	0.986	0.993	1.007	
institutsional yordam ~x	0.957	0.395	-0.11	0.916	0.426	2.151	
infratuzilma cheklovlari	0.694	0.309	-0.82	0.412	0.290	1.661	
samaradorlik oshishi ~x	0.936	0.409	-0.15	0.880	0.398	2.204	
iqtisodiy natijadorlik ~x	0.469	0.182	-1.95	0.051	0.219	1.002	*
Doimiy	0.016	0.012	-5.68	0.000	0.004	0.067	***
gamma (g'ompertz parametri)	0.086	0.013	6.65	0.000	0.061	0.111	***



O'rtacha bog'liq o'zgaruvchi = 23.780
 Standart og'ish = 9.156
 Kuzatishlar soni = 150
 Chi-kvadrat = 4.960
 Prob > chi² = 0.549
 AIC = 223.639
 *** p<.01, ** p<.05, * p<.1

PBI texnologiyalarini qabul qilish vaqtiga (adoption time) ta'sir etuvchi omillarni baholashda uchta turli parametrik omonlik modellari (Exponential, Weibull va Gompertz) natijalari qiyoslandi (2-, 3- va 4-jadvallar). Ushbu yondashuv olingan natijalarning statistik jihatdan barqarorligini (robustness) tekshirish imkonini beradi.

2-jadval (Exponential PH) natijalariga ko'ra, texnologiyani qabul qilishda bazaviy xavf (hazard) doimiy deb qabul qilinadi. Biroq, Akaike axborot mezoni (AIC = 266.743) ushbu modelning boshqalarga nisbatan prognoz qilish quvvati pastroq ekanligini ko'rsatdi.

3-jadval (Weibull PH) eng maqbul natijalarni taqdim etdi (AIC = 220.360). Ushbu modelda forma parametrlarining ($\ln p = 0.944$, $p < 0.001$) mavjudligi texnologiyani qabul qilish ehtimolligi vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishini (mazkur holatda kamayib boruvchi tempda ortishini) tasdiqlaydi. Model natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy natijadorlik omili hazard ratio ko'rsatkichiga ($p = 0.082$) ta'sir etib, iqtisodiy jihatdan barqaror xo'jaliklarda texnologiyani qabul qilish kechikishi (delay) ehtimolligi pastroqdir.

4-jadval (Gompertz PH) esa qabul qilish jarayonining eksponensial o'sish sur'atlarini baholaydi (AIC = 223.639). Gomperts parametri ($\gamma = 0.086$, $p < 0.001$) ijobiy qiymatga ega bo'lib, bu sohada texnologiyani tarqalish intensivligi vaqt o'tishi bilan kuchayib borishini anglatadi.

Uchta modelning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, operatsion ko'lam va iqtisodiy natijadorlik barcha spesifikatsiyalarda eng muhim ekzogen omillar bo'lib qolmoqda. Bu esa PBI texnologiyalarini joriy etishda ishlab chiqaruvchining moliyaviy-tashkiliy quvvati birlamchi ahamiyatga ega ekanligi haqidagi ilmiy farazimizni tasdiqlaydi.

Miqdoriy natijalar intervyu ma'lumotlari bilan triangulyatsiya qilinganda, respondentlarning 61 foizi PBI joriy etilgandan so'ng operatsion samaradorlik oshganligini bildirishgan. Biroq, institutsional muvofiqlashtirishning yetishmasligi, ayniqsa kichik fermer xo'jaliklari uchun texnologiyani o'zlashtirish yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Intervyu ishtirokchilarining fikriga ko'ra, raqamli tayyorgarlik va mahalliy agroxizmatlar bilan aloqalarning mavjudligi texnologiyani iqtisodiy natijadorlikka aylanish vaqtini qisqartirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimizda aniqlangan erta va kech qabul qiluvchilar o'rtasidagi 8.5 oylik farq (18.4 oyga nisbatan 26.9 oy) nafaqat texnik imkoniyatlar, balki "raqamli tayyorgarlik" darajasi bilan izohlanadi. Bu natijalar Rojersning (Rogers, 2003) innovatsiyalarning tarqalishi nazariyasiga mos keladi, biroq O'zbekiston sharoitida bu jarayon institutsional muhitga ko'proq bog'liqligi aniqlandi. Weibull modelida aniqlangan vaqtga bog'liqlik koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston agrar sektorida PBI texnologiyalari bo'yicha "o'rganish egri chizig'i" (learning curve) deb nomlanuvchi jarayon nisbatan tik, ya'ni dastlabki to'siqlar yengib o'tilgandan so'ng qabul qilish sur'ati tezlashmoqda.

SEM modeli natijalari (operatsion ko'lamning ta'siri 5.911) Radoglu-Grammatikis va boshqalar (2020) tomonidan ilgari surilgan "texnologiyani katta maydonlarda samaradorligi yuqori" degan fikrni quvvatlaydi. Biroq, bizning tadqiqotimiz shuni qo'shimcha qiladiki, O'zbekistonda kichik xo'jaliklar uchun asosiy to'siq texnologiyani qimmatligi emas, balki "xizmatlar ekotizimi" (service ecosystem)ning yetishmasligidir. Intervyularda ta'kidlangan "mahalliy tarmoqdan tashqaridagi muloqot imkoniyatining yo'qligi" kichik ishlab chiqaruvchilarni PBI texnologiyalaridan masofalashtirmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, institutsional yordam faqatgina subsidiya yoki imtiyozli kredit shaklida emas, balki infratuzilmaviy va huquqiy muvofiqlashtirish shaklida bo'lgandagina yuqori samara beradi. Modelda institutsional yordam o'zgaruvchisining koeffitsiyenti manfiy bo'lishi (-1.809) amalda mavjud byurokratik va infratuzilmaviy to'siqlar kamaygan taqdirda samaradorlik oshishini anglatadi. Bu esa PBI sohasida davlat siyosatini faqat moliyaviy dastaklar bilan cheklamay, balki "past balandlik havo hududini boshqarish" va "raqamli ma'lumotlar almashinuvi" kabi infratuzilmaviy masalalarga yo'naltirish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalari PBI texnologiyalarini joriy etish jarayoni bir tekis (chiziqli) emasligini, balki har bir bosqichda o'ziga xos institutsional va texnik to'siqlarga duch kelinishini ko'rsatdi. Xususan:

dastlabki bosqichda asosiy muammo infratuzilmaviy cheklavlar bo'lsa;

kengaytirish (scale-up) bosqichida muvofiqlashtirishdagi kamchiliklar;

konsolidatsiya bosqichida esa tartibga soluvchi (regulyator) organlar bilan yuzaga keladigan to'qnashuvlar asosiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday "nochiziqli" qabul qilish yo'llari Rojersning klassik modellari (Rogers & Shoemaker, 1971) farq qilib, O'zbekiston agrar sektorida texnologiyani o'zlashtirish "yo'lga bog'liqlik" (path dependency) va institutsional muhit konfiguratsiyasiga o'ta sezuvchan ekanligini tasdiqlaydi.



Boshqa hududlardagi o'xshash tadqiqotlar (masalan, Anonymous, 2025; Yang, 2024) bilan solishtirganda, O'zbekistonda PBI texnologiyalarining "ikkilamchi (second-order) effektlari" barqaror ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, texnologiyaning o'zigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan agroxizmatlar va ma'lumotlar almashinuvi tizimi xo'jalikning umumiy raqamli ekotizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiruvchi "katalizator" vazifasini o'tamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston agrar sohasida PBI texnologiyalarini joriy etish va ularning samaradorligini empirik baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Texnologiyani qabul qilish vaqti (Adoption Time) ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Erta qabul qiluvchilar (early adopters) kech qabul qiluvchilarga nisbatan operatsion samaradorlik va iqtisodiy barqarorlikka tezroq erishmoqdalar.

Operatsion ko'lam va raqamli tayyorgarlik PBI texnologiyalarining iqtisodiy natijadorlikka aylanish tezligini oshiradi. Yirik xo'jaliklar texnologiyani o'zlashtirishda "miqyos iqtisodiyoti" (economies of scale) effektidan samarali foydalanmoqdalar.

Institutsional qo'llab-quvvatlashning vositachilik roli juda muhim bo'lib, u faqat moliyaviy dastaklar bilan cheklanmasligi kerak. Infratuzilmaviy va huquqiy to'siqlarni kamaytirish kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarning PBI texnologiyalarini qabul qilish xatarlarini (risk) sezilarli darajada pasaytiradi.

Amaliy takliflar:

Differensiallashgan qo'llab-quvvatlash:

Davlat tomonidan institutsional yordam mexanizmlarini xo'jaliklarning operatsion ko'lamini va raqamli tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib farqlash (differensiatsiya qilish) lozim.

Servis ekotizimini rivojlantirish:

Kichik ishlab chiqaruvchilar uchun PBI texnologiyalarini bevosita sotib olish emas, balki ulardan xizmat sifatida (As-a-Service) foydalanish imkonini beruvchi mahalliy agroxizmatlar markazlari va kooperativlarni tashkil etish zarur.

Me'yoriy bazani soddalashtirish:

Past balandlikdagi parvozlarni boshqarish va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha byurokratik jarayonlarni raqamlashtirish va soddalashtirish talab etiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va PBI ni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzambetov A. (2025). UNDP strengthens agricultural service system for farmers in Aral Sea region. United Nations Development Programme. <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/undp-strengthens-agricultural-service-system-farmers-aral-sea-region>
2. Yang J. (2024). A case study on the development and application of low-altitude economy in agriculture in China: Based on demand-supply-environment perspective. Francis Press. <https://francis-press.com/papers/16989>
3. Radoglou-Grammatikis P., Sarigiannidis P., Lagkas T., et al. (2020). A compilation of UAV applications for precision agriculture. Computer Networks, 172, 107148
4. Junwei1 Zh., Jianju Du. (2025). From traditional agriculture to smart agriculture: The enabling mechanism and spatiotemporal effect of the low-altitude economy. Journal of China Agricultural University. <https://qks.sufe.edu.cn/J/CDXB/Article/Details/A0XJQfg5cx-wfOm-Sl1Z-Am21-2OSd3qD9Kz1H>
5. Wen J., Wang Z. (2025). How does the low-altitude economy drive total factor productivity? Evidence from firm-level data. SCILTP. <https://www.sciltp.com/journals/eem/articles/2510001667>
6. Liu X., Song D., Xu Z. (2024). Building a new engine of new quality productive forces development with low altitude economy. Journal of Beijing University of Aeronautics and Astronautics (Social Science Edition), 1-12
7. Teshaboyev O., Rasulov S. (2025). Popularizing the use of unmanned aerial vehicles in agriculture in Uzbekistan. Economics and Rural Sociology. <https://researchweb.uz/index.php/erus/article/view/306>
8. Ilyosov A. (2025). In the world and in Uzbekistan clear farming (precision agriculture). International Journal of Agricultural Innovations. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/9132>
9. Vafoev B., Khomidov Kh. (2021). Practice of using unmanned aerial vehicle in agriculture in Uzbekistan. TOJQI <https://tojqi.net/index.php/journal/article/download/4566/3169/5015>
10. Mukhamediyev, R. (2025). Drones help grow crops: A new generation precision farming system in Kazakhstan. Satbayev University. <https://satbayev.university/en/news/drones-help-grow-crops>
11. Kalamkar, et al. (2020). Drone technology in Central Asian agriculture. Czech University of Life Sciences Prague Thesis. <https://theses.cz/id/pptfxl/55866942>
12. Dileep, et al. (2020). UAV applications for agricultural productivity in Central Asia. Czech University of Life Sciences Prague Thesis. <https://theses.cz/id/pptfxl/55866942>
13. African Union Development Agency–NEPAD. (2018). Drones on the horizon - Transforming Africa's agriculture. NEPAD. <https://www.nepad.org/file-download/download/public/115553>



14. Xinyan Liu. (2025). An overview of low-altitude economy research. Scholink Journal of Economics and Policy Finance. <https://www.scholink.org/ojs/index.php/jepf/article/download/56403/12209>
15. Dongqing Liu, Hao Dong. (2025). Research on the strategy of low-altitude economic development in Shandong Province. AEPH. <http://www.aeph.press/uploadfile/202501/1276cce87421830.pdf>
16. Xiuli Chen, Joohan Ryoo. (2024). Sustainable agricultural innovation in Uzbekistan through the helix model. ECSEnet. <https://ecsenet.com/index.php/2576-6759/article/download/243/99/261>
17. World Bank. (2009). Reducing the vulnerability of Uzbekistan's agricultural systems to climate change. World Bank Documents. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/485571468318338846>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
